

ASRNING ASL SOZANDASI – TURG‘UN ALIMATOV.

Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqa san’ati instituti
“Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi mudiri, dotsenti

Ilyos Arabov

Annotatsiya:

Ushbu maqola O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston davlat konservatoriysi faxriy professori, milliy musiqa san’atimiz tarixida yorqin iz qoldirgan namoyandalar safidan o‘rin olgan benazir sozanda, mohir bastakor, mehrlı ustoz, milliy cholg‘ular ijrochiligini yanada yuqoriyoq pog‘onaga ko‘tarishga beminnat xizmat qilgan, hayotligidayoq afsonaviy san’atkorga aylangan, “XX asr tanburchisi”, “Tillo noxun” kabi oliy darajadagi ta’riflarga sazovor bo‘lgan , Turg‘un Alimatov haqidadir.

Kalit so`zlar: Tanbur, dutor, sato, nola, ijrochilik maktablari, Turg‘un Alimatov, ijodiy yutuqlar, ijodiy meros.

Аннотация:

Данная статья посвящена Тургуну Алиматову, народному артисту Узбекистана и почетному профессору Узбекистанской государственной консерватории. Он занимает выдающееся место в истории национального музыкального искусства как уникальный музыкант, талантливый композитор и добный учитель. Алиматов неустанно способствовал развитию исполнительского мастерства национальных инструментов, став легендарной фигурой еще при жизни. Он удостоен высших наград и титулов, таких как "Танбурист XX века" и "золотой ноготь".

Ключевые слова: Танбур, дутор, сато, нола, исполнительские школы, Тургун Алиматов, творческие достижения, творческое наследие.

Abstract:

This article focuses on Turğun Alimatov, a People's Artist of Uzbekistan and an honorary professor at the Uzbekistan State Conservatory. He holds a prominent place in the history of national music art as a unique musician, skillful composer, and kind mentor. Alimatov tirelessly contributed to the advancement of performance techniques for national instruments, becoming a legendary figure during his lifetime. He has received high honors and titles, such as "Tanburist of the 20th century" and "Golden Nail."

Keywords: Tanbur, dutor, sato, nola, performance schools, Turgun Alimatov, creative achievements, creative legacy.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekistonda san’at va madaniyatga e’tibor – ijtimoiy islohatlarning bosh mezoni sifatida ko‘rilayotgani hech kimga sir emas. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlar bevosita san’at va madaniyat sohasini yanada taraqqiy toptirishga xizmat qiladi. Jumladan, sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ3920-sonli qarori, 2018-yil 28-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori, 2020-yil 26-mayda “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-sonli farmoni qabul qilindi.

Shu bilan birga, 2021-yil 9-dekabrdagi “Madaniyat va san’atni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ36-sonli qarori hamda 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarorlarda ham sohaga oid dolzarb masalalar belgilangan bo‘lib, ularni amalga oshirishda soha mutasaddilariga juda katta vazifalar yuklatilgan. Shulardan bir qatorda 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son farmonida Respublikamizda 2030-yilgacha madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohatlar aniq belgilab berilgan.

Shubha yo‘qki, Milliy musiqa san’atimizni yangi bosqichga olib chiqishda o‘tgan ulug‘ ustozlarimizning ijodi va faoliyatini, ularning o‘ziga xos va betakror ijrochilik mahoratini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratildi. XIX asr oxiri – XX asr davomida Ota Jalol Nosirov (1845-1928), Hojji Abdulaziz Rasulov (1852-1936), Ota G‘iyos Abdug‘ani (1859-1927), Levi Boboxonov (1873-1926), Usta Olim Komilov (1875-1953), Abdusoat Vahobov (1875-1934), Shorahim Shoumarov (1876-1969), Domla Halim Ibodov (1878-1940),

Berkinboy Fayziyev (1885-1945), Rizqi Rajabiy (1887-1977), Matyusuf Xarrotov (1889-1953), Imomjon Ikromov (1891-1980), Jo‘rabek Saydaliev (1905-), Orif Qosimov (1909-2001), G‘anijon Toshmatov (1913-1994), Faxridin Sodiqov (1914-1977), Fattohxon Mamadaliev (1923-1999), Orifxon Hotamov (1927-2002), Rasulqori Mamadaliev (1928-1976) va boshqa maqomdon san’atkorlarning ijrochilik faoliyati tahsinga sazovor.

Turg‘un Alimov nomi ham tarixda yorqin iz qoldirib, ana shunday mashhur ijodkorlar safiga qo‘sildi. Turg‘un Alimatov nafaqat zamondoshlari, balki navqiron avlodlarning musiqiy tafakkurini boyitishga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Benazir sozandaning jahon sahnalarida jonli ijrosi orqali qozongan muvaffaqiyatlari mumtoz musiqamiz dovrug‘ini dunyoga keng yoyildi. Turg‘un Alimatov nafaqat tanbur, balki sato va dutor cholg‘ularining har birini maromiga yetkazib ijro etish mahoratiga ega bo‘lgan.

Turg‘un Alimatovning dastlabki ijrochiligi dutor bilan bog‘liq bo‘lib, u ushbu asbobni o‘ziga xos uslubda chalardi. Uning ijrosida boshqa musiqachilardan farqli ravishda, kuy jarayonida ohangning noladorligini ta’minlashga alohida e’tibor berilgan. U shuningdek, parda ketma-ketligini uzmasdan, glissando usuli bilan sirg‘antirib ijro etardi. Ushbu yondashuv dutor torlarining bir-biriga mutanosibligini saqlab, ma’lum bir pardada ikkita torni uyg‘unlashtirib ijro qilishga imkon yaratgan. Ijro jarayonida nafaqat birinchi tor, balki ikkinchi tor ham birinchi torning pardalariga moslashtirib chalinardi.

Darhaqiqat, Turg‘un Alimatov chinakam milliy ijodkor edi. U o‘ziga xos va betakror ijodiy uslubini yaratgan, mustaqil ijrochilik yo‘lini topa olgan buyuk san’atkordir. Zamondosh ko‘p sozandalar orasida beqiyos salohiyati bilan ajralib turuvchi Turg‘un Alimatov ijrochilarga xos bo‘lgan holat, kuy-ohang bezaklari haqida quyidagi ajoyib fikrlar bilan o‘rtoqlashgan: “Milliy musiqamizning tabiat shundayki, unga noziklik, dard, nola baxsh etilmasa, u qurq bir tovushga o‘xshab qoladi. Shuning uchun uni bitta sozning o‘zida chalganida ham dunyo eshitadigan qilish mumkin”. Ustoz mulohazalarini davom ettirar ekan: “Dutor va tanburimizda ana shu dardni tashqariga chiqaradigan barcha imkoniyatlar bor” – deb bejiz ta’kidlamagan. Turg‘un Alimatov o‘z ijodiy-ijroviy yondashuvining sirlarini quyidagi tarzda bayon etgan: “Men cholg‘uchi bo‘lmasimdan avval eshitgan kuylarimning ohanglari yuragimga o‘rnashib qolgan. Qo‘limga cholg‘u asbobini olganimdan keyin, o‘sha yuragimga o‘rnashgan narsalarni qo‘lda ifoda eta

boshlaganman. Toki, o'sha ko'nglimdagi darajaga yetadigan bo'lguncha chalaverganman. Shu sababli, – deya davom etadi ustoz, – asl musiqani ijro etayotgan narsa qo'lim emas, qalbim! Uzluksiz chalaverishimdan keyin o'zidan-o'zi pishib, ma'lum bir kuy shakliga kirib qoladi". Milliy musiqa ijrochiligidagi qo'llaniladigan bezaklarning maxsus atamalar bilan nomlanishi ko'pchilikka ma'lum. Masalan, "qochirim", "to'lqinlatish", "nolish", "kashish" va boshqalar. Turg'un Alimatov mazkur musiqiy bezaklarni o'z o'rniда ishlata oldi. Chunki ushbu musiqiy bezaklar majmui tovushlarning ta'sirchanlik sifatini belgilaydi. Musiqa bezaklari yuzasidan izohlarni professor Rifatilla Qosimovning "An'anaviy tanbur ijrochiligi" darsligidan to'liq kiritishga jazm etdik. Mazkur kitobda aynan Turg'un Alimatovning ijodiy-ijroviy maktabiga tayangan holda yozilganini bildik: Qochirim – oddiy va murakkab melizm (kuyni turlicha qisqa tovushlar bilan bezatuvchi belgi)larning barcha turini o'z ichiga oladi:

1. Bezaklar – forshlag turlari;
2. Bidratma – trellar turlari;
3. Sayqal – mordentlar turlari.

Rifatilla Qosimov mazkur darsligida o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligidagi bezaklarni uch guruhga bo'lgan:

- 1) oddiy;
- 2) qo'sh;
- 3) uchtalik.

Demak, bular bir, ikki, yoki uch tovushlardan tashkil topadi. Ijro jarayonida bunday bezaklar yangrashi lozim bo'lgan asosiy tovushlar hisobida bo'ladi, – deya izoh beradi darslik muallifi. Bidratma – ikki yonma-yon tovush tebranishidan hosil qilinadi. U eng qisqa va eng uzun tebranishdan iborat bo'lishi mumkin. Tanburda noxunni tor simlariga urib va urmasdan chalish uslubi bidratmaga ham taalluqlidir. To'lqinlatish – vibrato. Tanbur, sato, g'ijjak ijro etiluvchi ifodaviy usullardan biri hisoblanadi. Tanburda barmoqni pardaga bosib noxun bilan urilgandan so'ng barmoqning o'zida torni vertikal holda bosib titratish yo'li bilan hosil qilinadi. Shuningdek, ushbu bezakdan butun, yarimtallik, choraktalik va nimchorak notalarni ijro etishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, mazkur usulning badiiy ahamiyati shundan iboratki, ahamiyatsiz holda takrorlanib turadigan ko'tarilish va pasayishga erishilgan egiluvchanlik, tovushning to'la-to'kisligi va mazmunga boyligi uning tembrini o'zgartiradi. To'lqinlatish eshitish qobiliyatiga aynan tembrning tarkibiy

qismi, tovushning bo‘yog‘i sifatida qabul qilinadi. U ko‘pincha mustahkam, ya’ni nisbatan uzoq yangrovchi tonlarda qo‘llanilib, ijro etilayotgan musiqa xarakteriga mos bo‘lishi lozim. Nolish – yarim ton chegarsigacha bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma (vibrato). Tanburni chalganida bu usul chap qo‘l barmoqlarini bir tekisda dastada vertikal, chuqurroq bosib harakatlantirish bilan ijro etiladi. Molish – (silab o‘tmoq) – bir tovushdan ikkinchisiga sekinlashgan holda sirpanish usuli, glissandoga yaqin. To‘lqinlatish, nolish va qo‘chirim unsurlari bilan uyg‘unlashib ishlatiladi. Badiiy talqin etishning o‘ta muhim vositalaridan biri bo‘lib qolgan. Kashish – (cho‘zim) – yarim ton doirasida amalga oshiriladigan bezak usuli. Bunda barmoqlar tanbur dastasida pardaga bosiladi va ikkinchi barmoq bilan vertikal holda yarim ton gacha tor eziladi. Ushbu ijro etish ifoda vositalarining yorqin sifat ko‘rinishi, rango-rang ishlatilishi Turg‘un Alimatovning tanbur, dutor va sato ijrochiligida kuzatiladi.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, Turg‘un Alimatovning ijodiy va ijroviy merosida quyidagi bastakorlarga xos yo‘nalishlar asosiy o‘rin egallaydi:

Masalan, “Fabrika”, “Bilaguzuk”, “Jigar pora”, “Tanovar”ning turli yo‘llari, jumladan, “Farg‘ona tanovari”, “Qo‘qon tanovari”, “Adolat tanovari” va boshqalar; Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarini bastakorona qayta ishlash natijasida o‘ziga xos ijro talqinini yaratish. Bunga “Segoh”, “Navrozi Ajam”, “Eshvoy”, “Kurd”, “Chorgoh”, “Toshkent Irog‘i”, “Cho‘li Iroq”, “Giryा 1,2” misol bo‘lib xizmat qiladi; Shashmaqom cholg‘u va ashula yo‘llaridagi asarlarni ijro etish jarayonida noyob talqiniga erishish. Masalan, “Navo”, “Saraxbori Buzruk”, “Samoi Dugoh”, “Samarqand Ushshog‘i” va.b. kabilar; Zamondosh bastakorlarning asarlarini qayta idrok etish. Masalan, mashhur xalq ashulalaridan “Ey sabo” Doni Zokirov musiqasi, “Guluzorim” Hoji Abdulaziz Rasulov musiqasi, “Kuygay” Yunus Rajabiy musiqasi, “Yolg‘iz” To‘xtasin Jalilov musiqasi kabi namunalardir. Noyob asarlar ijod etish. Masalan, “Dutor navosi”, “Tanbur navosi”, “Sato nolasi”, “Improvisatsiya” va boshqalar.

O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston davlat konservatoriysi faxriy professori Turg‘un Alimatov milliy musiqa san’atimiz tarixida yorqin iz qoldirgan namoyandalar safidan o‘rin olgan. U benazir sozanda, mohir bastakor, mehri va ustoz sifatida milliy cholg‘ular ijrochilagini yanada yuqoriroq pog‘onaga ko‘tarishga beminnat xizmat qildi. Shuning uchun ham u hayotligida afsonaviy san’atkorga aylanishga, “XX asr tanburchisi”, “Tillo noxun” kabi oliy darajadagi ta’riflarga sazovor bo‘ldi. Shubhasiz, hassos san’atkor ijro va ijod bobida mahorati, mumtoz

musiqa san'atidagi ko‘p yillik mehnati tufayli yangi-yangi kuy talqinlari, noyob chalish uslubi yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Ustoz-sozanda asarlarni o‘rganish va amaliy o‘zlashtirishdan tortib, tinglovchilar hukmiga olib chiqguncha murakkab va mashaqqatli, ayni paytda go‘zal va lazzatli jarayonni boshdan kechirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Turg‘un Alimatov musiqasi tinglovchini o‘ziga rom etadi va qalbiga rohat baxsh etadi. Balki shu sababdan ham sozandalik san’atini puxta egallagan Turg‘un Alimatov san’ati bugungi kunda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay, xalq mehri to‘ridan joy olganligi bilan ajralib turadi.

Sozandaning ijro san’ati xalqaro ko‘lamda tanildi. Turg‘un Alimatovni hayotining so‘nggi davrida ko‘plab chet ellarga ijodiy safarlarga jalg etishdi. Jumladan, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH, kabi mamlakat sahnalaridagi chiqishlari, ijodiy uchrashuvlari esda qolarli voqealarga aylangan. O‘zbek mumtoz kuylarini tanbur, dutor va satoda faqat mohirlik bilan ijro etishi g‘arb tinglovchilarini qizg‘in olqishlariga sazovor bo‘ldi. Bugungi kunda afsonaviy sozanda Turg‘un Alimatovni nafaqat yurtimizda, mintaqamizda, balki uzoq elatlarda ham milliy san’at darg‘asi sifatida yaxshi bilishadi. Ayniqsa, Ustoz-sozandaning o‘zbek mumtoz musiqa an’analariga tayanib, samarali ijod qilib kelganligi alohida e’tiborga loyiq. Betakror sozanda ijrosidagi asarlar orqali o‘zbek xalqining dil tuyg‘ularini dunyo xalqlari qalbiga tutashtirishga xizmat qilib kelgan. Turg‘un Alimatovga bag‘ishlangan ilmiy-ma’rifiy ishlar nafaqat respublika miqyosida, balki xorij davlatlarda ham borligi bizni quvontiradi. Ammo bunday adabiyotlar juda kam.

Sevimli xalq san’atkori martabasiga musharraf bo‘lgan buyuk sozanda, mohir bastakor, mehrli ustoz bo‘lishi iqtidor egalari uchun ta’sir ko‘rsatishi nihoyatda kuchli edi. U umrining oxirigacha O‘zbekiston davlat konservatoriyasida tanburchi shogirdlariga saboq berib keldi. Shogirdlarining kamoli ustoz uchun baxt sanaladi. Turg‘un Alimatov kabi Ustozdan turli davrlarda saboq olgan, keyinchalik mashhur xonanda, sozanda va malakali o‘qituvchi bo‘lib yetishib chiqqan shogirdlar soni ko‘pchilikni tashkil qiladi. Jumladan, O‘zbekiston xalq xofizlari Hasan Rajabiy va Mahmudjon Tojiboev, Milliy cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha shuhrat qozongan zamondosh sozandalar qatorida ma'lum ma'noda Abdushoshim Ismoilov, Abdurahim Hamidov, Ustoz – farzandlari Alisher Alimatov, Valisher va G‘anisher, nabirasi Abror Zufarov, hozirda professor sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan tanburchi Abdulla Umarov, O‘zbekiston xalq artisti, sozanda Toir Qoziyev va boshqa san’atkorlar nomlarini sanab o‘tish lozim. Benazir san’at ustasi Turg‘un Alimatov ana shunday

yetuk salohiyatlari, mohir ijrochi bo‘lib jonbozlik ko‘rsatgan sozandalarni tarbiyaladi. U yaratgan musiqiy ijrochilik yo‘li hamda ijodkorlik uslubi endilikda nabira, abira shogirdlari tomonidan davom ettirilmoqda. Tanbur, sato, dutor chalishda faqat bo‘lgan Turg‘un Alimatov siymosi buyuk sozanda, bastakor, ustoz sifatida shogirdlari qalbida mangu qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017-yil 17-noyabr. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 18 noyabr soni.
2. Abdulaziz I. Dutor navosi. //Arzhumand. "Sharq". T., 2012 yil.
3. Abdulaziz I. Turg‘un Alimatovning ko‘ngil mulki. //Jannatmakon jurnali. T., 2006 yil.
4. Ahmadov M. Hoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936). T., "O‘qituvchi" 1974 yil.
5. Alimatov A., Akrom S. San’atga baxshida umr. "MERIYUS". T., 2017 yil.
6. Alimatov T. Soz vasfi. //“Sharq yulduzi” jurnali, 1996 yil, 1 son.
7. Alimatov T. Ustozlar iborati yoshlarga o‘rnak. //Shashmaqom saboqlari. T., 2005 yil.
8. Ibrohimov O. Benazir san’atkor. //Shashmaqom saboqlari. T., 2005 yil.
9. Karimova N. Turg‘un Alimatov va uning ijodiy-ijroiyl merosi. Magistrlik dissertatsiya. T., 2013 yil.
10. Матякубов О. Додекаграмма. Т., Издательство “Истиқлол”, Т., 2005 год.
11. Olimboeva-Ahmedova K. O‘zbek ayoli hayotida musiqa //O‘zbek xalq xonanda va sozandalari. Turg‘un Alimatov. "Yozuvchi". T., 1996 yil.
12. Oripov Z. Ilk qadamlar. "Sovet O‘zbekiston san’ati" jurnali, 1978 yil, 9 son.
13. Qosimov R. An’anaviy ijrochilik.-T., 2007.
14. Rajabiy H. Ba’rying to’la navo sening. //“Sovet O‘zbekiston san’ati” jurnali, 1981 yil, 5 son.
15. Rajabiy Yu. O‘zbek xalq muzikasi. V tom. Buxoro maqomlari – T.: 1959.
16. Rajabiynoma. Tuzuvchi Hasan Rajabiy. – Toshkent, "Art press", 2016.
17. Rajabov I. Maqomlar – T.: 2006.
18. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va faravon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2016y.



Research Science and
Innovation House

**"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN" JURNALI**

VOLUME 2, ISSUE 9, 2024. SEPTEMBER

ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

19. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt
20. Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. "UNESCO". T., 2005 yil.
21. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi – T.: 2000.
22. Yunusov R. Turg'un Alimatov va uning musiqasi. "The Bukharian Times" gazetasi, Nyu-York, 2012 yil, 518 son.
23. Zufarov A. "Tanovar"da aks etgan umr. Guliston jurnali, 2022 yil 1-son.



**Research Science and
Innovation House**